

**LICHINKA XORDALILAR (UROCHODATA) YOKI QOBIQLILAR
KENJA TIPI ASSIDYALILAR (ASCIDAE) SINFI**

*Odiljonov Boymurod Elmurodjon o'g'li
Ortiqova Mukarramxon Nizomiddin qizi
Andijon davlat pedagogika
instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo'nalishi talabalari
odiljonovboymurod@gmail.com
mukarramoyortiqova@gmail.com*

Annotatsiya: Lichinka xordalilar kenja tipining umumiy tasnifi va sistematikasi. Assidiyalar sinfi vakillari tuzilishi, ko'payishi, tarqalishi va ularning kelib chiqishi.

Abstract: General classification and systematics of the larval chordate subtype. Structure, reproduction, distribution and origin of representatives of the Ascidian class.

Kalit so'zlar: lichinka xordalilar, Assidiyalar, Salblar, Apendukilyariyalar, Tip, Kenja tip, Sinf.

Личинка хордалилар содда ва тубан тузилган денгиз Хайвонлари булиб, асосан личинкалик даврида хордалилар типига хос булган Тузилишга эга. Вояга етган даврида бу хайвонларнинг хордаси йуколиб кетади, Нерв найи узгариб, ягона нерв тугунини хосил килади. Факат аппенди- Куляриялардагина нерв найи хдѐти давомида сакланиб ко л ади. Тузилишининг Бундай соддалашуви эркин яшовчи личинкаларнинг вояга етган даврида утрок Яшашга утиши билан боглик. Личинка хордалиларнинг танаси копсимон ѐки бочкасимон шаклда Булади. Уларнинг гавдаси ташки томондан махсус парда, кобик, яъни туникага Уралганлиги билан бошка хордал ил ардан фарк килади. Туника келиб чикиши Жихатидан тери эпителийси ва улар ораеидаги мезенхиматоз хужайралар Ажратган махсулот хисобланади. Туника узининг кимѐвий таркиби жихатидан Усимлик целлюлозасига якин туради ва шу модданинг хайвонот оламида хам Борлигини курсатадиган деярли бирдан-бир мисол хисобланади. Туниканинг Асосий вазифаси хайвонларни ташки мухитдан химоя килишдир. Туника Хайвонларнинг пассив харакат килиши ва утрок холда яшаши натижасида Келиб чиккан.

Асцидиялар орасида якка-якка яшайдиган турлари хам ва колония булиб Утрок х;олда хаѐт кечирадиган турлари хам учрайди. Колония булиб яшайдиган Асцидиялар жинсий усулда купайишдан ташкари, куртакланиш йули билан Жинссиз усулда хам купаяди. Ас ци дня л ар нинг купчилиги бир жойда хаѐт

кечиради, лекин уларнинг сувда эркин сузиб юриб хаёт кечирадиган колониял Турлари хам мавжуд. Вояга етган асцидияларнинг узунлиги 30-50 см га боради.

Асцидияларнинг халгасимон ёки бочкасимон танаси ташки томонидан Дидцирок клетчаткасимон моддадан иборат калин кобик (туника) билан уралган Булиб, остки томонидаги товони билан сув тагидаги бирорта субстратга Ёпишиб яшайди. Туника катта химоя ахамиятига эга булиб, утрок ёки ярим утрок холатга Кучиш натижасида хосил булган. Туниканинг тагида тер и-му скул копи ёки Мантияси бор. Танасининг юкори томонида огиз сифони ва ундан пастрокда эса Клоака сифони жойлашган.

Lichinkaxordalilar juda sodda tuzilgan va har xil tarzda hayot kechiradigan dengiz hayvonlaridir. Voyaga yetganlarining juda ko`pchiligi nerv nayi va xordasining bo`lmasligi bilan boshqa xordalilardan farq qildi. Lichinkalik davrida bu belgilar ularda aniq ko`rinib turadi. Gavdasi tashqaridan maxsus parda-tunika bilan qoplangan. Tunika himoya ahamiyatiga ega bo`lib, o`troq yoki yarim o`troq hayotga ko`chish natijasida hosil bo`lgan. Tunika kelib chiqishi jihatidan teri epiteliysi va ular orasidagi mezenximatoz hujayralar ajratgan mahsulotdir. U o`zining kimyoviy tarkibiga ko`ra o`simlik sellyulozasiga yaqin turadi va shu moddaning hayvonot olamida ham borligini ko`rsatadigan yagona misol hisoblanadi.

Pardalilarning hammasi germafroditdir. Bular jinsiy va jinssiz yo`llar bilan ko`payadi. Yakka-yakka yoki koloniya bo`lib o`troq hayot kechiradi, ba`zilari erkin suzib yashaydi. O`ta passiv, ya`ni suvni filtratsiya qilib oziqlanadi. Qon aylanish sistemasi tutash emas. Bu kenjatip uchta sinfga: assidiyalar (Ascidiae), salplar (Salpae), appendikulyariyalar (Appendiculariae)ga bo`linadi.

Voyaga yetgan astsidiya tashqi ko`rinishidan qo`shog`iz shisha bankaga o`xshagan bo`lib, ostki tomoni bilan suv tagidagi bironta narsaga yopishib oladi va o`troq hayot kechiradi. Uning ustki tomonidagi teshik og`iz sifoni, yon tomonidagi teshik kloaka sifoni deyiladi. Gavdasi tashqi tomondan parda — tunika bilan qoplangan. Tunika murakkab tuzilgan bo`lib, yupqa va qattiq ku-tikula bilan qoplangan, kutikulaning tagida kletchatkasimon modda — tunitsindan tashkil topgan ipsimon to`r joylashadi. Tunikani epiteliy hujayralari ajratadi va odatda, anorganik tuzlar bilan shimilgan bo`lib, tarrang va zich himoya qiluvchi qobiqqa aylanadi. Bu qobiqda ayrim hujayralar va hatto qon tomirlari kirib turadi. Ba`zi bir astsidiyalarning tunikasi yupqa, silliq, yarim tiniq, bezsimon bo`lsa, boshqa birlari qalin va bo`rtmali bo`ladi. Ayrim turlarida tunika ektodyermaga mahkam yopishib tursa, boshqalarida faqat og`iz va kloaka sifonlari atroflarida qo`shiladi. Tunikaning ostida teri epiteliysidan tuzilgan teri-muskul xaltasi yoki mantiya joylashadi. Sifonlar atrofida bu teshiklarni ochib-yopuvchi maxsus halqasimon muskul bog`lamlari joylashadi. Mantiya qavatimuskulaturasining qisqarishi va bo`shashi natijasida og`iz sifonining ichki devoridagi kiprikchalar tebranadi va buning oqibatida halqumga suv yutiladi.

Nerv sistemasi. Voyaga yetgan astsidiyaning markaziy nerv sistemasi og'iz sifoni bilan kloaka sifoni o'rtasida joylashgan kichikroq nertugunchasidan iborat. Bu tugunchaning ichki bo'shlig'i, ya'ni nevrotseli bo'lmaydi va yaxlit nerv massasidan iborat. Voyaga yetgan assidiyada sezuv organlar yo'q.

Assidiyalar (Ascidia) – qobiqlilar kenja tipining sinfi. Uz. 0,1 mm dan 30 sm gacha, yakka yoki kolo-niya bo'lib yashaydi. Xaltasimon tanasi qalin qobiq (tunika)ga o'ralgan, ustki tomonida og'iz teshigi va kloaka sifoni joylashgan, ostki tomoni bilan suv tubiga yopishgan. Halqumi devorida joylashgan juda ko'p jabra yoriqlari jabra oldi bo'shlig'iga ochiladi. Bu bo'shliqqa jin-siy yo'llar, kloakaga orqa ichak ochiladi. Ikkilamchi tana bo'shlig'i halqum devo-ridan hosil bo'lgan bir juft nay perikard va epikarddan iborat. Voyaga yetgan A.da xorda, nevrotsel kabi xordalilar uchun xos bo'lgan belgilar bo'lmaydi, le-kin lichinkasida bu organlar rivojlan-gan. Jinsiy va jinssiz yo'l bilan ko'payadi. Lichinkasi erkin yashaydi. A.ga bir necha turkum, 100 urug' va 2000 ga yaqin tur kiradi. Deyarli hamma dengizlarga tarqalgan.

Assidiya tanasida hosil bo'lib turadigan dissimilyatsiya mahsulotlari ayrim hujayralar ichida to'planib turadi va ular organizmda qoladi. Voyaga yetgan assidiyalarda xordasi butunlay yo'qolib ketadi. Nerv nayi esa qisqarib, og'iz sifoni bilan Kloaka sifoni oralig'ida yagona nerv tugunini hosil qiladi. Lekin Ular-ning lichinkasida xordalilar tipiga xos bo'lgan barcha tuzilish belgilari saqlangan. Assidiyalar germafrodit bo'lib, otalanishi ichki yoki tashqi. Assidiyalarning otalangan tuxumidan harakatchan mikroskopik itbaliqqa o'xshash lichinka chiqadi. Assidiyalar lichinkasining tuzilishi o'rganilganda ularda haqiqiy xordaning borligi, xordasining ustida esa nevrotsel bo'shlig'i bo'lga nerv nayi joylashganligi, ko'zi, muvozanat va boshqa Sezgi organlarining borligi aniqlangan. Lichinka bir qancha vaqt suvda erkin suzib yurib, so'ngra Suv ostidagi birorta substratga yopishib, o'troq holda yashashga o'tadi va uning dumi, xordasi hamda nerv nayining qo'p qismi yo'qolib, tuzilishi soddalashadi. Assidiyalar jinssiz kurtaklanib ham ko'payadi.

Xulosa: Lichinkaxordalilar juda sodda tuzilgan va har xil tarzda hayot kechiradigan dengiz hayvonlaridir. Voyaga yetganlarining juda ko'pchiligi nerv nayi va xordasining bo'lmasligi bilan boshqa xordalilardan farq qildi. Lichinkalik davrida bu belgilar ularda aniq ko'rinib turadi. Gavdasi tashqaridan maxsus parda-tunika bilan qoplangan. Tunika himoya ahamiyatiga ega bo'lib, o'troq yoki yarim o'troq hayotga ko'chish natijasida hosil bo'lgan. Tunika kelib chiqishi jihatidan teri epiteliysi va ular orasidagi mezenximatoz hujayralar ajratgan mahsulotdir. U o'zining kimyoviy tarkibiga ko'ra o'simlik sellulozasiga yaqin turadi va shu moddaning hayvonot olamida ham borligini ko'rsatadigan yagona misol hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda Lichinka xordalilar kenja tipinimng vakillari o'ziga xos murakkab tuzilishga ega hisoblanadi. Xordalilarning tuban vakili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зоология (ходалилар) С. Дадаев, К. Сапаров Тошкент “ИКТИСОД-МОЛИЯ”2009.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/astsidiyalar-uz/>
3. <https://aim.uz/referaty/86-zoologiya/77380-lichinka-xordalilar-kenja-tipi-lichinka-xordalilar-kenja-tipining-umumiy-tavsifi-va-sistematikasi.html>
4. UMURTQALILAR ZOOLOGIYASI Laboratoriya mashg'u!otlari